

# TRANSPORT VOSITASINI IJARAGA BERISH SHARTNOMASI

2022 y. «8» 4

2022-426-4-69-OB-  
son

Qarshi sh.

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani «Sharofiddin-Nurillo» MChJ (keyingi o'rinlarda Ijrochi deb yuritiladi), Nizom asosida ish olib boruvchi korxonada boshlig'i N.Nomozov bir tarafdin Buyurtmachi deb ataluvchi Qarshi shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi korxonada nizomi asosida ish olib boruvchi korxonada boshlig'i T.Cho'panov ikkinchi tarafdin quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzadilar.

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI.

1.1 Mazkur shartnoma bo'yicha Ijrochi 2022 yilda Buyurtmachining topshiriqlariga muvofiq Qarshi shahar "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish, shahar hududida Obodonlashtirish va Ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish jarayonida hashar ishlariga jalb etilgan harbiy xizmatchilariga avtobuslarida olib kelishi va olib ketishi xizmatlarini ko'rsatish, Buyurtmachi esa bu xizmat uchun Ijrochiga haq to'lash majburiyatini oladilar.

1.2 Shartnoma 2022 yil 08 aprel kundan 2022 yil 31 dekabr kuni holatida amalda bo'ladi.

## 2.XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI:

2.1 Buyurtmachi xizmat ko'rsatilishi uchun, Ijrochiga kerak bo'lgan transport vositalari ajratilishi to'g'risidagi buyurtmani taqdim etadi. Mahalliy yo'nalishlar bo'yicha qatnashi kerakligi so'ralayotgan transport vositasi uchun buyurtma 24 soat va shaharlararo yo'nalishlar bo'yicha qatnashi kerakligi so'ralayotgan transport vositalari uchun buyurtma 48 soat oldin beriladi. .

2.2 Xizmat ko'rsatish Buyurtmachining kuch va vositalari bilan transport ustavlari kodekslari hamda ularga muvofiq chiqarilgan qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

2.3. Transport xizmati Ijrochi va Buyurtmachi tomonidan topshirish va qabul qilish dalolatnoma imzolanganidan boshlab bajarilgan deb hisoblanadi.

## 3.TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI:

3.1 Buyurtmachining majburiyatlari:

3.1.1 Transport xizmati ko'rsatilishi uchun Ijrochiga:

Mazkur shartnomaning 2.1.-bandida belgilangan muddatda ajratilishi so'ralayotgan transport vositasining turi va soni, ajratilish muddati hamda ularning qatnash yo'nalishlari ko'rsatilgan, korxonada rahbarining imzosi bilan buyurtmani (Buyurtmachi bunday buyurtmani telefonogramma uslubida yoki faks orqali ham taqdim etishi mumkin);

Obyektlarga olib boradigan yo'llarning masofasi va sifatini ko'rsatgan holda yo'nalish chizmalarini; Transport xizmati ko'rsatish jarayonini nazorat etuvchi va transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi uchun javobgar shaxslarning ro'yxatini;

Buyurtmachining xodimlarini transport vositasida tashish amalga oshirilayotganda, ularning lavozimlari va ismi-shariflari ko'rsatilgan ro'yxatini taqdim etish.

3.1.2. Transport xizmatini amalga oshirish uchun ajratilgan transport vositalari Buyurtmachi huzuriga yetib kelgan vaqti to'g'risida Ijrochining dispetcheriga xabar berish.

3.1.3 Ajratilgan transport vositalaridan maqsadli ravishda foydalanib yo'l varaqalariga va yuk tashish hujjatlariga xizmat amalga oshirilganligi haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida yozib borish.

3.1.4 Transport vositalarining xarakat yo'nalishlarini o'zgartirish zarur bo'lganda bunday o'zgartirishni Ijrochi bilan kelishgan holda amalga oshirish.

3.1.6 . Xizmat safariga yuborilgan haydovchiga kerakli maishiy sharoit yaratilib, uni issiq ovqat bilan, transport vositasini esa qo'riqlanadigan to'xtash maydonchasiga qo'yilishini ta'minlash.

3.1.7. Ijrochiga mazkur shartnomaning 4-bo'limida belgilangan tartibda haq to'lash.

3.2. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega.

3.2.1. Xizmat ko'rsatilishini amalga oshirish uchun ajratilgan transport vositasi nosoz bo'lganida yoki buyurtmadagi talablarga javob bermasligi aniqlanganida, yoxud haydovchi transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lmaganida, bunday transport vositasidan voz kechish.

3.2.2. Mazkur shartnomani xohlagan vaqtida bekor qilish haqidagi xabarnoma ijarachiga berilganiga qadar u tomonidan bajarilgan xizmat haqini to'lab berish.

3.3. Ijrochining majburiyatlari:

3.3.1. Xizmat ko'rsatish uchun ajratilayotgan transport vositalari ro'yxatini va har bir transport vositasini texnik pasporti ksero nusxasini shartnoma tuzilishiga qadar Buyurtmachiga taqdim etish.

3.3.2. Xizmat ko'rsatish uchun ajratilgan transport vositasi buzilib qolganida uning o'miga xuddi shunday turdagi va markadagi transport vositasini ajratish, transport vositasining haydovchisi ishga chiqa olmasligi aniqlanganida uning o'miga bu turdagi transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lgan boshqa haydovchi ajratish.

#### **4. SHARTNOMA BAHOSI, TASHISH UCHUN XISOB-KITOBLAR VA ULARGA HAQ TO'LASH TARTIBI:**

4.1 Shartnomaning bahosi 99 500 000 (to'qson to'qqiz million besh yuz ming) so'mni 2022 yil 24 fevraldagi 133-4-69-Q/22 Qarshi shahar hokimining qaroriga asosan Qarshi shahar "Yashil makon" umummilliy loyahasini amalga oshirish, shahar hududida Obodonlashtirish va Ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish jarayonida hashar ishlariga jalb etilgan harbiy xizmatchilariga avtobuslarida olib kelishi va olib ketishi xizmatlarini ko'rsatish uchun ajratilgan mablag' hisobidan to'lab beriladi. Shartnomani bahosi Buyurtmachi taqdim etgan smeta, spetsifikatsiya va tijorat taklifi asosida belgilanadi.

4.2 Ko'rsatilgan xizmatlar uchun oldindan to'lov 100% to'lab berilishi lozim.

4.3 Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida tomonlarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining o'shishi bilan bog'liq hujjatlar buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda qoplanadi.

4.4 Transport vositalarining bir soatlik xizmat haqi ushbu shartnomaga ilova qilinayotgan kelishuv bayonnoma va smetada ko'rsatilgan miqdorda belgilanadi hamda bu bayonnoma va smeta ushbu shartnomaning ajralgan qismi bo'lib hisoblanadi.

#### **5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.**

5.1. «Ijrochi» o'z zimmasidagi Buyurtmachi topshirig'ini o'z vaqtida bajarmaganligi uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida bajarilmagan ishning summasining 0.5 foizi, lekin 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.2 Bajarilgan ishlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun ish beruvchi (buyurtmachi) ish bajarib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan, miqdorida penya to'laydi. -

5.3.«Buyurtmachi» belgilangan muddatda bajarmagan va bajargan ishdan sababsiz bosh tortganligi uchun "Ijrochi"ga bajarilmagan ishni umumiy qiymatining 15 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi bajarilmagan ish uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish huquqiga ega. "Ijrochi" buyurtmachiga ishni lozim darajada bajarmaganda ishning umumiy qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

#### **6. KAFOLATLAR.**

6.1 Ijrochi Buyurtmachiga xizmat ko'rsatish huquqiga to'liq ega ekanligiga kafolat beradi.

#### **7. FORS-MAJOR HOLATLARI**

7.1 Taraflarning birortasi boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan teskari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo'lmagan holatlar, bunga urush e'lon qilinishi yoki amalda boshlangan fuqarolik tartibsizligi, vabo tarkalishi, blokada, embargo yer kimirlashi, suv bosishi yongin va boshqa tabiiy ofat bilan bog'liq holda bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

7.2 Bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlari tomonidan berilgan guvohnomalari uning yetarli darajadagi tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

7.3 Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlar uch oy davomida muntazam ta'sir etayotgan bo'lsa va tugash belgilari aniqlanmasa «Buyurtmachi» yoki «Ijrochi» yozma xabar yuborish yo'li bilan ushbu shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## 8. BARTARAF QILIB BO'LMAYDIGAN KUCHLARNING TA'SIRI

8.1. Bartaraf qilib bo'lmaydigan holatlar (suv toshqini, zilzila, yong'in va boshqalar, hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmonlari va hokazolar) ro'y bergan hollarda tomonlar majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday hollarda tomonlar bir-birini 3 (uch) kun muddat ichida yozma tartibda xabardor qilishi kerak.

## 9. SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA SHARTLAR.

9.1 Ushbu shartnoma bir xil huquqiy kuchga ega 2 (ikki) nusxada tuzildi.

Ushbu shartnomaga oid bo'lgan barcha yozmalar va og'zaki kelishuvlar ushbu shartnomaga zid bo'lsa, shartnoma imzolanganidan boshlab o'z kuchini yuqotadi.

9.2. Ko'rsatilayotgan xizmat belgilangan km.dan oshib ketganda shu oshiqcha km.ga qo'shimcha haq to'lanadi.

## 10. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

10.1. Shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlardagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonтиради va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

10.2. Buyurtmachi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ijrochining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ijrochining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

## 11. SHARTNOMAGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR

### KIRITISH, YOKI UNI BEKOR QILISH TARTIBI.

11.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilganidan va vakolatli shaxslar tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy deb hisoblanadi.

11.2. Shartnoma tomonlarning o'zaro kelishuviga yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilinishi mumkin. Shartnoma bekor qilinganida, tomonlar bir-biriga yetkazilgan zararni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq to'lab beradilar.

Shartnomani bir tarafdama bekor qilish yozma taklif berish yo'li bilan amalga oshiriladi, taklif olingandan so'ng 7 (etti) kunlik muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi.

## TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI

### BAJARUVCHI

"SHAROFIDDIN-NURILLO" MCHJ

Manzili Qarshi tuman Hamza ko'chasi  
3- uy

Telefon 90-666-95-55

X/R x/r 2020 8000 5042 8676 3001

Bank Qarshi tuman Xalq banki

MFO 00695

INN 204 685 169

OKONX 51121

Rahbar

N. Namozov



### BUYURTMACHI

Qarshi shahar XX "Obodonladonairish  
boshqarmasi"

Manzili: A.Navoiy ko'chasi 27 uy

Sh/x/r

Inn 207 106 24

O'zbekiston Respublikasi Moliya  
Vazirligi gaznachiligi

x/r 2340 2000 3001 0000 1010

Bank Markaziy bank Toshkent shahar  
bosh. Boshqarmasi XKKM

MFO 00014 INN 201122919

Rahbar

T.Cho'panov



## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma. Transport vositasini ijaraga berish shartnomasi.

**2. Loyihaning nomi:**

“Qarshi shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi (buyurtmachi) bilan “Sharofiddin-Nurillo” MCHJ (ijrochi) o‘rtasida Qarshi shahar “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, shahar hududida Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish jarayonida hashar ishlariga jalb etilgan harbiy xizmatchilarga avtobuslarida olib kelishi va olib ketishi xizmatlarini ko‘rsatish, buyurtmachi esa bu xizmat uchun ijrochiga haq to‘lash bo‘yicha bahosi 99 500 000 (to‘qson to‘qqiz million besh yuz ming) so‘mlik shartnomani tuzish haqida”.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot:**

Qarshi shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i T.Cho‘panov, 2022 06 aprel.

Loyihani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining 21.12.1995 yildagi Fuqarolik Kodeksi( I qism)ning 260-263-moddalari, 29.08.1996-yildagi Fuqarolik Kodeksi (II qism)ning 564-572-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-670-I-sorli Qonunining 24-35-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2005-yildagi “Yengib bo‘lmas kuch(fors-major) holatlarini tasdiqlovchi mehanizmni amalga kiritish haqidagi” №63-son qarori talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar yuridik xizmat  
ko‘rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti**

**M.K.Turdiyeva**

2022 08 aprel



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI  
QARSHI TUMANI HOKIMLIGI



YURIDIK SHAXSNI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH TO'G'RIDA

# GUVOHNOMA

QAYTA

Reyestr № 2

2012 yil 06 mart

Mazkur guvohnoma «SHAROFIDDIN - NURILLO» yuridik shaxsga berildi

Tashkiliy-huquqiy shakli : Mas'uliyati cheklangan jamiyat

THSHT (OHO)

1152

Mulkchilik shakli : Xususiy

MSHT (FO)

142

Davlat ro'yxatidan o'tgan kundagi pochta manzili :  
Qarshi tumani Beshkent sh. Hamza - 3

MHBT (COATO)

1710224

Yuridik shaxs kodi :

KTUT (OKHO)

19226646

Asosiy faoliyat turi : Aviotransport xizmati

XXFTT (OKOHX)

51121

Soliq to'lovchining identifikatsion raqami :

STIR (IHH)

204685169

## Qo'shimcha ma'lumotlar:

“Sharofiddin Nurillo” xususiy firmasining 2012 yil 5 martdagi yig'lish qaroriga asosan tashkiliy huquqiy shakli mas'uliyati cheklangan jamiyatga aylantirilib 2012 yil 06 mart kuni qayta ro'yxatdan o'tkazildi.  
(Avval 2003 yil 6 oktyabrda ro'yxatdan o'tgan)

INSPEKSIYA BOSHIG'I

Q. LUTFIYEV.

**LITSENZIYA  
LICENCE  
ЛИЦЕНЗИЯ**Seriya:  
Serial:  
Серия:AT № 2010023Faoliyat turi:  
Type of activity:  
Вид деятельности:Йуловчиларни шаҳарда шаҳар атрофида шаҳарлараро микроавтобус ҳамда автобусларда ташиш  
Городские пригородные междугородные перевозки пассажиров микроавтобусами и автобусамиLitsenziya egasi:  
Licence owner:  
Владелец лицензии:"SHAROFIDDIN-NURILLO" МЧЖPochta manzili:  
Postal address:  
Почтовый адрес:Кашкадарьинская область, Каршинский район, Beshkent shahri, Hamza k.3Bank rekvizitlari va STIR:  
Bank references and TIN:  
Банковские реквизиты и ИНН:X/r 20208000504286763001 MFO 00695 STIR 204685169 КАРШИ Т., АТ ХАЛК БАНКИ  
БЕШКЕНТ ФИЛИАЛИ ХХТУТ 51121Berilgan sanasi:  
Date of issue:  
Дата выдачи:23.02.2021Litsenziyaning amal qilish muddati:  
This licence valid:  
Срок действия лицензии:CheklanmaganLitsenziya beruvchi organ:  
Licence issued authority:  
Орган выдавший лицензию:O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasiQuyidagi hujjatga asosan berilgan:  
Issued on the basis of:  
Выдана на основании:Vazirlar Mahkamasining 30.07.2019 yildagi 636-sonli QaroriLitsenziya reyestrda:  
The licence is registered in Register Board under №:  
Лицензия зарегистрирована в реестре за №8193039-sonli raqam bilan qayd etildi



**QASHQADARYO VILOYATI  
QARSHI SHAHRI HOKIMINING  
QARORI**

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko'chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2022 йил «24» февраль

133-4-69-Q/22

Қарши шаҳар ҳокимлиги

**Qarshi shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga shaharda obodonlashtirish  
va ko'kalamzorlashtirish, qurilish-ta'mirlash ishlari va daraxtlar ekish  
xarajatlarga mablag' ajratish to'g'risida**

Xalq deputatlari Qarshi shahar kengashining 2022-yil 23-fevraldagi VI-31-23-4-69-K/22-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasiga shahar mahalliy byudjetining 2022 yil boshidagi erkin qoldiq mablag'lari hisobidan shaharda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, qurilish-ta'mirlash ishlari va daraxtlar ekish xarajatlarga 912,980 (to'qqiz yuz o'n ikki million to'qqiz yuz sakson ming) mln.so'm mablag' ilovaga muvofiq ajratilsin.

2. Qarshi shahar moliya bo'limi (Ashurov) belgilangan tartibda moliyalashtirish rejasiga o'zgartirish kiritishni, G'aznachilik bo'linmasi (Pirmatov) ajratilgan mablag'ni kassa ijrosini o'z vaqtida ta'minlasin.

3. Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasi (Chupanov) ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalansin.

4. Viloyat Davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi (Raxmatov)dan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari K.Sultonov zimmasiga yuklatilsin.

**Qarshi shahar hokimi**



**N.Xolboyev**



Qarshi shahar hokimining  
2022 yil 24 fevraldagi  
133-4-69-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

**Qarshi shahar mahalliy byudjetining 2022 yil boshidagi erkin qoldiq mablag'lari  
hisobidan Obodonlashtirish boshqarmasiga yo'naltiriladigan mablag'lar to'g'risida  
ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Bajariladigan ishlar</b>	<b>Ajratilgan mablag'</b>
1	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Qarshi shahrining Nasaf ko'chasida piyodalar yo'lagini ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini bajarish xarajatlariga	200 000 000
2	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Boshqarma balansidagi maxsus avtotransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali davlat raqami olish va avtotransport vositalarini sug'urtalash xarajatlariga	18 300 000
3	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Shahar ko'chalaridagi ustunlarda xar xil ko'rinishdagi bayrokli bannerlar, Karnay-surnay, Qo'ng'irtog' massivi va Maxallot maxallasi xududiga, hamda shaharning turli hududlariga yil nomi va davlat tili to'g'risidagi bannerlarni yasash va o'rnatish xarajatlariga	94 680 000
4	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Shaharning markaziy ko'chalariga turli xildagi manzarali daraxtlarni olib kelish va ekish xarajatlariga	200 000 000
5	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Cho'lquvar MFY hududida joylashgan 4 va 5-ko'p qavatli uylarning oldida piyodalar yo'lagi qurish, tungi yoritish chiroqlari va o'rindiqlar o'rnatish ishlari xarajatlariga	100 000 000
6	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Mustaqillik va Buyuk Turon ko'chalari kesishmasida joylashgan panno ko'rgazmasini ta'mirlash xarajatlariga	100 000 000
7	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Qo'ng'irtog' xududida qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish xarajatlariga	100 000 000
8	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Qarshi shahriga kelgan xarbiy xizmatchilarni manziliga olib borish va olib kelish uchun avtobuslarni ijaraga olish xarajatlariga	100 000 000
	<b>JAMI</b>		<b>912 980 000</b>